

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**KARIMOV ISLOMJON JUMABOY O'G'LI**

**KARAM, LOVIYA, MOSH ASOSIDA YANGI OZIQ-OVQAT  
QO'SHILMALARI OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi  
14.00.41– Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Karimov Islomjon Jumaboy o‘g‘li</b> Karam, loviya, mosh asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularni sinflash .....	3
<b>Каримов Исламджон Джумабой угли</b> Получение и испытание новых пищевых добавок на основе капусты, фасоли и маша.....	21
<b>Karimov Islamjon Jumaboy ogli</b> Preparation and testing of new food additives based on cabbage, beans and mung bean .....	39
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**KARIMOV ISLOMJON JUMABOY O'G'LI**

**KARAM, LOVIYA, MOSH ASOSIDA YANGI OZIQ-OVQAT  
QO'SHILMALARI OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi  
14.00.41– Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K884 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-saxifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Asqarov Ibrohim Rahmonovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Turdialiyev Umid Muxtaraliyevich**

texnika fanlari doktori, katta ilmiy hodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Ahmadaliyev Mahammadjon Axmadaliyevich**

texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Ubaydullayev Komiljon Tursunovich**

kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika institute**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "26" 03 soat 10<sup>00</sup> daqiqa daqiqligida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "10" 03 kuni tarqatildi. (2025 yil 10.03 daqiqa daqiqligida № 57 raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.M.Kirgizov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, k.f.d., professor

**M.M.Mo'minjonov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

**M.M.Xojimatov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan, tabiiy, bezarar oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish, ularning foydali xususiyatlarini aniqlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, turli vegetatsion davrlardagi dorivor o‘simliklarning qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo‘ladigan, tarkibida vitaminlar, flavonoidlar kabi biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz va ekologik toza, turli yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yallig‘lanish kasalliklarini oldini olish hamda davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dorivor giyohlardan ajratib olingan tabiiy biologik faol birikmalardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish yo‘nalishida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yallig‘lanish kasalliklarini davolovchi yoki oldini oluvchi dorivor o‘simliklar asosida ba’zi sintetik vositalarning o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababdan, tarkibida yallig‘lanish kasalliklarida ijobiy ta’sir etuvchi tabiiy birikmalar saqlagan karam, loviya va mosh o‘simliklari asosida, yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibi aniqlash, hamda ularga TIF TN bo‘yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda inson organizmi immunitetini oshirish bilan birga ko‘plab kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq –ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, karam, loviya va mosh o‘simliklari asosida tarkibida yallig‘lanish kasalligini oldini oluvchi birikmalar saqlagan, organizm Immunitetini ko‘taruvchi, zararsiz, tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari o‘rganish hamda uyg‘unlashgan tizim qoidalari bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, shuningdek, 2020 yil 10 apreldagi PF-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dorivor o‘simliklar tarkibini kimyoviy jihatdan tahlil qilish va ular tarkibida uchraydigan biologik faol moddalarni tadqiq qilish, jumladan immunitetni oshirish va yallig‘lanishga qarshi faollik xossalari ustida ko‘plab olimlar ish olib borganlar.

AQSH olimlari D.J.Newman, G.M.Cragg, nemis olimi A.Helmstadter, polyak olimi M.Przeorlar tomonidan hayvonot va dorivor o‘simliklar asosida yallig‘lanishga qarshi va immunitetni oshiruvchi yangi tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. MDH davlatlarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha E.B.Arushanyan, O.N.Dimbrilova, L.A.Lapinina, A.A. Spasovlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lsalar, O‘zbekistonlik olimlar k.f.d., professor I.R.Asqarov, t.f.d., professor N.S.Mamasoliyev, k.f.d., professor R.Nuridinovlar rahbarligida Yu.T. Isaev, I.Yu. Mamatova, O.SH. Abdulloyev, M.M. Mo‘minjonov, U.Sh.Xusanov va K.T.Ubaydullayevlar diqqatga sazovor natijalarga erishganlar.

Karam, loviya va mosh o‘simliklarning biokimyoviy xususiyatlari ustida R. Sinx, T. L. Kiseleva, G. N. Gudkova, P. Bofetta, S. Naxae, N. Nyuman, Yu. I. Vargach, V. A. Gorkov, M. Yu. Drobijev, Yu. E. Azimova, G. R. Tabeevalar kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Karam, loviya va mosh o‘simliklaridan immunitetni oshirishda, yallig‘lanish kasalliklarini davolashda foydalanilmagan hamda ushbu o‘simliklardan olingan oziq-ovqat qo‘shilmalariga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha tovar kodlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi karam, loviya va mosh o‘simliklari asosida tayyorlangan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibini o‘rganish, yallig‘lanish kasalligini oldini olish va davolashda foydalanish, hamda kimyoviy tarkibi asosida tegishli yangi tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy–tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi:** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Turli maqsadlarda qo‘llaniladigan tovarlarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish” yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** karam, loviya, mosh o‘simliklari asosida

yallig'lanish kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish hamda ularni kimyoviy tarkibini aniqlash asosida TIF TN bo'yicha sinflashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

karam, loviya, mosh o'simliklari asosida yangi, immunitetni oshirish hamda yallig'lanish kasalligini davolashda qo'llaniladigan oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish;

olingan oziq-ovqat qo'shilmalarning kimyoviy tarkibi, antioksidantlik va antiradikal faolliklarini aniqlash;

olingan oziq-ovqat qo'shilmalarini biologik faolliklarini laboratoriya va klinik sinovlardan o'tkazish asosida shifobaxshlik xususiyatini isbotlash;

yangi oziq-ovqat qo'shilmalariga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash uchun tavsiya etish.

**Tadqiqotning obyektini** karam, loviya, mosh o'simliklari hamda ular asosida olingan "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalari hamda yallig'lanish kasalligi bilan og'rigan bemorlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalarini yallig'lanish kasalliklariga ta'siri va ular tarkibidagi biologik faol moddalarni aniqlash hamda kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda perkolyatsiya, ekstraksiya, sterelizatsiya, quritish, viskozimetriya, spektrofotometriya, YuSSX, induktiv bog'langan plazmali optik emission spektrometriya (ICP-OES), karragenin shishi, paxta granulyomasi, o'tkir zaharlash va kumulyativlik xususiyatlarini aniqlash, surunkali zaharlash xususiyatlarini aniqlash testlari kabi usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

karam bargidan olingan sharbati hamda loviya va mosh pishib yetilgan urug'lari asosida xalq tabobati usullari yordamida turli a'zolar (nafas olish, ayirish va bo'g'imlar) ning yallig'lanish kasalliklarini samarali davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan yangi "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilgan;

"As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi vitaminlar va flavonoidlar yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasi, makro- va mikroelementlar induktiv bog'langan plazmali optik emission spektrometriya kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

*in vitro* sharoitida "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalarini spektrofotometrik tahlil qilish orqali antioksidant hamda antiradikal faolliklari yuqori ekanligi isbotlangan;

"As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalarining yallig'lanishga qarshi, o'tkir zaharlilik va kumulyativ xususiyatlari yuzasidan *in vivo* sharoitida tajribalar o'tkazildi hamda sanitariya-epidemiologik ko'rsatkichlari jumladan, og'ir metallar miqdori, bakteriologik, parazitologik va radiologik ko'rsatkichlari belgilangan talablarga mos ekanligi isbotlangan;

klinik tadqiqotlar davomida Immun tizimi hamda nafas olish a'zolarining yallig'lanishiga uchragan bemorlar (roziliklari asosida) "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalari bilan davolanganda ushbu qo'shilmalar yallig'lanish kasalligini davolash xususiyatiga ega ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

karam, loviya va mosh asosida "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalari hamda ularga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan;

yangi oziq-ovqat qo'shilmalarining kimyoviy tarkibi asosida normativ hujjatlar: retsept, tashkilot standarti, texnik insturksiya ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Oziq-ovqat qo'shilmalaridan ajratib olingan mineral elementlarning sifat va miqdoriy tarkibi induktiv bog'langan plazma (ICP-OES) usuli yordamida aniqlanganligi, ularning biologik faolliklari, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari matematik – statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "As-Nafas" va "As-Immun" kabi oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlar, flavonoidlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida, makro- va mikroelementlar miqdori induktiv bog'langan plazmali optik emission spektrometriya kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasi, induktiv bog'langan plazmali emission spektrofotometriyasi usulida aniqlanganligi, biologik faolligi zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati karam, loviya va mosh o'simliklari asosida "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalarining ishlab chiqilganligi, ularni ishlab chiqarish uchun retsept, tashkilot standarti, texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilganligi hamda mazkur oziq-ovqat qo'shilmalari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalarini "Oltin vodiy tabiati" MCHJ da yalpi mahsulot sifatida ishlab chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma olingan (O'zbekiston Respublikasi prezidenti administratsiyasi xuzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi sanitariya-epidemiologiya nazorat bo'limi 2024-yil, 5-noyabrdagi №018319-son ma'lumotnomasi). Natijada karam, loviya va mosh o'simliklari asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

"As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalariga TIF TN bo'yicha karam bargi asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari uchun - 1212 30 150 4 hamda loviya va moshning urug'laridan tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari uchun - 1212 30 150 5 tovar kodlari bojxona amaliyotiga tavsiya etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2024-yil, 18-

oktyabrdagi № 17/05-24-0003-son ma'lumotnomasi). Natijada, shu kabi oziq-ovqat qo'shilmalarini eksport va import qilishda ularda undiriladigan boj to'lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, 6 ta maqola respublika va 3 ta maqola xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zaruriyati ifoda etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmetlari ko'rib chiqilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ayrim o'simliklar (karam (*brassica L*), loviya (*phaseolus vulgaris L*) va mosh (*phaseolus aureus*)) ning kimyoviy tarkibi va ularning foydali xususiyatlari, xalq tabobatidagi o'rni (adabiyotlar taxlili)**" deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o'rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada yallig'lanish kasalligi, uni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari, shuningdek, xalq tabobatida mazkur kasallikni davolashda qo'llaniladigan dorivor o'simliklarining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari to'g'risidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, mamlakatimizda yaratilgan Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati fanlari, oziq-ovqat qo'shilmalarini TIF TN bo'yicha sinflash borasidagi muammolar haqida so'z yuritilgan.

Dissertatsiyaning "**O'simliklar asosida tayyorlangan yangi oziq-ovqat qo'shilmalarining kimyoviy tarkibi va ularni tadqiq etish (olingan natijalar muxokamasi)**" deb nomlangan ikkinchi bobida karam, loviya, mosh o'simliklari asosida yaratilgan "As-Nafas" va "As-Immun" oziq-ovqat qo'shilmalar tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan vitaminlar, flavonoidlar miqdorini aniqlash natijalari, shuningdek, ularning antioksidant va antiradikal faolliklari, bakteriologik, parazitologik, radiologik xususiyatlari va og'ir metallar mavjud emasligi, bundan tashqari, hayvonlar (oq sichqon, kalamush, Shinshilla quyon) da yallig'lanishga qarshi, o'tkir zaharlash va kumulyativlik xususiyatlari, immun tizimini oshirish, yallig'lanish kasalligini

oldini olish va davolash xususiyatlarini aniqlash hamda TIF TN bo'yicha sinflash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining olinishi va ularning antioksidant faolligini o‘rganish. Karam, loviya va moshning turli nisbatdagi aralashmalarining antioksidant faolliklari ularning adrenalinning oksidlanishini kamaytirishi va *in vitro* sharoitida kislorodning faol shakli rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi orqali baholandi. Antioksidant faolliklari eng yuqori natijani ko‘rsatgan nisbat asosida oziq-ovqat qo‘shilmasi tayyorlandi va shartli ravishda “As-Nafas” hamda “As-Immun” deb nomlandi.

1-jadval

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi olish uchun optimal nisbatni aniqlash natijalari (Antioksidant faolliklari asosida)

O‘rganilayotgan namunalar	D <sub>1</sub>	D <sub>2</sub>	AA, %
<b>Karam asosida olingan</b>			
“As-Nafas” siropi (5 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,285	62,02
“As-Nafas” siropi (10 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,253	66,26
“As-Nafas” siropi (25 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,201	73,21
“As-Nafas” siropi (50 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,176	76,54
“As-Nafas” siropi (70 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,125	83,34
“As-Nafas” siropi (80 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,189	78,80
“As-Nafas” siropi (90 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,242	67,73
<b>Loviya va mosh asosida olingan</b>			
“As-Immun” qiyomi (5 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,304	59,46
“As-Immun” qiyomi (10 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,295	60,66
“As-Immun” qiyomi (25 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,256	65,87
“As-Immun” qiyomi (50 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,221	70,54
“As-Immun” qiyomi (70 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,202	73,07
“As-Immun” qiyomi (80 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,240	68
“As-Immun” qiyomi (90 %) 0,06 mg/ml	0,75	0,252	64,40
<b>Gliklazid</b>			10,0
<b>Kversetin</b>			37,4

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi elementlarni “ICP-OES” usulida aniqlash natijalari. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi 20 ta makro- va mikroelementlar miqdori induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya usulida aniqlandi. Oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval


“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi makro- va mikroelementlar aniqlash natijalari

Element	“As-Nafas” (mg/100 ml)	“As-Immun” (mg/100 ml)	Element	“As-Nafas” (mg/100 ml)	“As-Immun” (mg/100 ml)
Ca	97,503	184,503	Ni	0,0090	0,0102
K	94,120	123,120	Mn	0,0079	0,0093
P	76,935	98,935	Si	0,0060	0,0081
Na	45,365	62,365	Ag	0,00	0,00
Mg	21,012	36,012	Pb	0,00	0,00
S	19,08	24,08	Cd	0,00	0,00
Fe	0,550	0,853	Zn	0,00	0,00
Li	0,0129	0,0325	As	0,00	0,00
Se	0,00975	0,00975	Hg	0,00	0,00
Co	0,0095	0,0115	Cu	0,00	0,00

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasining 100 g tarkibida 97,503 mg kalsiy, 94,120 mg kaliy, fosfor 5,14 mg, 21,012 mg magniy, 45,365 mg natriy “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida 184,503 mg kalsiy, 123,120 mg kaliy, 98,935 mg fosfor, 62,365 mg natriy, 36,012 mg magniy ko‘p miqdorda ekanligini aniqlandi.


Xulosa qilib aytganda, “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari minerallarga boy tabiiy manbalar hisoblanadi va o‘z navbatida Mg, K, Ca, Na kabi minerallarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishi mumkin.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi fenol birikmalar miqdorini aniqlash. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi fenol birikmalar YuSSX usulida aniqlandi va xromatogrammalari quyidagi rasmlar orqali ko‘rsatib o‘tildi.



1-rasm. “As-Nafas” ekstrakti tarkibidagi fenol moddalarning xromatogrammalari.

“As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar xromatogrammalari quyidagi rasmlarda keltirilgan.



2-rasm. “As-Immun” ekstrakti tarkibidagi fenol moddalarning olingan xromotogrammasi.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibidagi gall kislota, rutin, apigeninlarning miqdorlari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.


3-jadval

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibidagi fenol moddalarning miqdorlari

O‘rganilgan namunalari	Gall k-ta mg/ml	Rutin mg/ml	Apigenin mg/ml	Kemferol mg/ml
“As-Nafas”	0,019	0,0010	-	0,0015
“As-Immun”	0,015	0,0020	0,0030	-


“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibida gall kislota 0,019 mg/ml, rutin 0,0010 mg/ml, kemferol 0,0015 mg/ml miqdordaligi isbotlandi. Apigenin flavonoidi aniqlanmadi. “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibida gall kislota 0,015 mg/ml, rutin 0,0020 mg/ml, Apigenin 0,0030 mg/ml miqdorda ekanligi aniqlandi. Kemferol flavonoidi aniqlanmadi. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibidagi flavonoidlarni yetarli ekanligi nafas olish va boshqa a’zolarining yallig‘lanish kasalliklarni davolashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlari tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori. Vitaminlar insonlar salomatligini tiklovchi va kasalliklarni oldini olishda imunitet tizimini mustahkamlovchi manbalar hisoblanadi. “As-Nafas” ekstrakti tarkibidagi vitaminlar miqdori YuSSX usuli yordamida aniqlandi va quyidagi xromatogrammalar olindi.



3-rasm. “As-Nafas” ekstrakti tarkibidagi B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>,B<sub>6</sub> va PP vitaminlar xromatogrammasi.

O‘tkazilgan tajribada “As-Immun” ekstraktidan vitaminlarning quyidagicha xromatogrammalari olindi.



4-rasm. “As-Immun” ekstrakti tarkibidagi B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub> va PP vitaminlar xromatogrammasi

Tajribalarda aniqlangan natijalarga ko‘ra, “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi vitaminlar miqdorlari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi vitaminlarning miqdori (mg/100 ml).

Vitaminlar	“As-Nafas”	“As-Immun”
B <sub>1</sub>	-	0,1
B <sub>2</sub>	0,1	-
B <sub>6</sub>	-	0,6
PP	0,2	0,4
C	7	20,7

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasi 100 g tarkibida suvda eruvchi vitaminlardan B<sub>2</sub> 0,1 mg, PP 0,2 mg va C vitamin 7 mg ekanligi aniqlandi. “As-

Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi 100 g tarkibida suvda eruvchi vitaminlardan B<sub>1</sub> 0,1 mg, B<sub>6</sub> 0,6 mg, PP 0.4 mg, C 20,7 mg ekanligi aniqlandi.

Vitamin C kuchli antioksidant bo‘lib, erkin radikallarni neytrallaydi, nafas yo‘llaridagi infeksiyalarga qarshi kurashishni kuchaytiradi, bu esa yallig‘lanishni kamaytiradi. U nafas yo‘llari yallig‘lanishini kamaytirish uchun zarur bo‘lgan himoya mexanizmlarini yaxshilaydi. Vitamin B<sub>6</sub> Immun tizimining to‘g‘ri ishlashini ta‘minlaydi va yallig‘lanishga qarshi himoya qiladi. Bu, ayniqsa, yallig‘lanish kasalliklari bo‘lgan nafas yo‘llari uchun foydalidir. Vitamin B<sub>2</sub> organizmdagi oksidlanish jarayonlarini boshqaradi, yallig‘lanishga qarshi ta‘sir qiladi va organizmni shikastlangan to‘qimalarni tiklashga yordam beradi.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antiradikal faolligini *in vitro* sharoitida aniqlash natijalari. “As-Nafas”, “As-Immun”, “As-Nafas” + “As-Immun” ekstraktlari antiradikal faolligi (ARF), barqaror erkin radikal DPPH (2,2 – difenil – 1 – pikrilgidrazil) ga nisbatan o‘rganildi.

5-jadval

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antiradikal faolligini aniqlash natijalari

O‘simliklardan olingan ekstraktlar	IC <sub>50</sub> , mkl	t <sub>50</sub> , sek 50 mkl modda
“As-Nafas”	12.4±0.85	17.6±0.94
“As-Nafas” (suyultirilgan)	48.62±3.11	56.38±2.58
“As-Immun”	7.2±0.69	10.8±0.52
As-immun (suyultirilgan)	43.85±2.15	55.68±2.15
“As-Nafas” + “As-Immun”	11.8±0.95	16.7±0.75
“As-Nafas” + “As-Immun” (suyultirilgan)	49.85±1.38	57.13±1.86

Tadqiqotlar davomida antioksidant faolliklari yuqori bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalari *in vivo* sharoitda ham olib borildi va kuniga 2 mahal 100 mg/kg dozada 21 kun davomida kiritilish natijasida tahlillar olindi, yallig‘lanishga uchragan hayvonlarning yashab qolish imkoniyati 50 % ga ortdi, olingan oziq-ovqat qo‘shilmalari DPPH ga nisbatan antiradikal faollikka ega ekanligi isbotlandi.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antiradikal faolliklari ularning suvli ekstraktida eng yuqori ekanligi isbotlandi. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining foydali xususiyatlari ya‘ni antiradikallik faolliklari yuqori ekanligini inobatga olib, ulardan zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatida keng foydalanish mumkin.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarini o‘rganish. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarini o‘rganish kasallik chaqirilgan kalamushlarda olib borildi va *in vivo* usulida karragenin va paxta granulyomasi modeli bo‘yicha baholandi. Tadqiqotlar sanitariya qoidalari va laboratoriya hayvonlariga insoniy munosabatda bo‘lish standartlari va Xelsinki Deklaratsiyasi (Butun Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasi, Edinburg, 2000 y),

Xalqaro tibbiy ilmiy jamiyatlar kengashi (CIOMS; the council for international organizations of medical sciences) va eksperimental hayvonlarni saqlash va ularda tadqiqotlar xalqaro “Guide for the Care and Use of Laboratory Animals”, qoidalariga muvofiq amalga oshirildi.

6-jadval.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining kalamushlarda karragenin yallig‘lanishining kechishiga ta’siri ( $M \pm m$ ;  $n=6$ )

Oziq-ovqat qo‘shilmalar	Doza mg/kg	3 soatdan keyin		24 soatdan keyin	
		Shishning kattalashishi %	AEF, %	Shishning kattalashishi %	AEF, %
Nazorat (suv)	-	93,8±4,60	-	50,0±6,5	-
“As-Nafas”	5	65,1±1,70	31,0	17,4±3,75	65,2
“As-Immun”	5	59,4±2,12	36,6	13,3±2,61	73,4
“As-Nafas” + “As-Immun”	5	54,6±2,68	41,7	12,9±1,94	74,2
Glitserin (etalon)	0.5 ml	44,1±6,80	53,0	12,8±2,75	74,4

Izoh: \* -  $p < 0,05$ , \*\* -  $p < 0,01$ , \*\*\* -  $p < 0,001$  nazoratga nisbatan.

7-jadval.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlarini yallig‘lanishga qarshi faolligini kalamushlarda “paxta granulyoma” si modelida o‘rganish ( $M \pm m$ ;  $n=6$ )

Guruhlar	Midqor (mg/kg)	EM, mg	EB, %	GM, mg	PB, %
Nazorat (suv)	-	346,0±29,4	-	86,5±9,70	-
“As-Nafas”	5	243,3±23,3*	29,7	62,2±6,98	28,1
“As-Immun”	5	235,6±17,4	31,9	60,1±2,41	30,5
“As-Nafas” + “As-Immun”	5	230,8±10,7	33,4	57,8±5,7	33,1
Glitserin (etalon)	20	228,0±22,4*	34,1	55,8±7,4*	35,5

Izoh: \* -  $p < 0,05$ , \*\* -  $p < 0,001$  nazoratga nisbatan.

“As-Nafas”, “As-Immun”, “As-Nafas”+“As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlari kalamushlar terisida yallig‘lanish o‘chog‘ini keskin kamaytirishi olib borilgan tadqiqotlarda isbotlandi. Bunga asoslangan holda ushbu oziq-ovqat qo‘shimlaridan yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olishda foydalanish mumkinligi aniqlandi.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlarining o‘tkir zaharliligi va kumulyativ xususiyatlari. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shimlarining o‘tkir zaharliligi bo‘yicha tajriba natijalariga ko‘ra, ularni 4000, 5000 va 6000 mg/kg dozalarda kiritilgan hayvonlarda zaharlanishning klinik belgilari namoyon bo‘lmadi va ularning xulq-atvorida o‘zgarishlar kuzatilmadi.

8-jadval.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining har xil dozalarda  
“o‘tkir zaharlash” ko‘rsatkichlari

Oziq-ovqat	Hayvon turi:	Dozalar, mg/kg	Hayvon soni/ o‘lganlar soni	LD <sub>50</sub>
“As-Nafas”	sichqon	4000	6/0	≥10000 mg/kg
		5000	6/0	
		6000	6/0	
		8000	6/0	
		10000	6/0	
“As-Immun”	sichqon	4000	6/0	≥10000 mg/kg
		5000	6/0	
		6000	6/0	
		8000	6/0	
		10000	6/0	
“As-Nafas” + “As-Immun”	sichqon	4000	6/0	≥10000 mg/kg
		5000	6/0	
		6000	6/0	
		8000	6/0	
		10000	6/0	
Nazorat	sichqon	dis. Suv	6/0	-

9-jadval.

“As-Nafas”(1), “As-Immun”(2) va “As-Nafas” + “As-Immun”(3) oziq-ovqat  
qo‘shilmasining sichqonlarda kumulyativ xossalarini o‘rganish natijalari

Kiritish kunlari	Hayvonlar soni, n=10	LD <sub>50_1=10000 mg/kg</sub>		
		1	2	3
1-4	0/10	1000	700	1200
5-8	0/10	1500	1350	1950
9-12	0/10	2200	2040	2500
13-16	0/10	3400	3010	3850
17-20	0/10	5000	5200	5200
21-24	0/10	7500	7300	7900
25-28	0/10	11200	8100	10000

Shunday qilib, “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarini bo‘yicha olingan natijalar “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining o‘rtacha o‘lim dozasi LD<sub>50</sub>>10000 mg/kg ekanligini ko‘rsatdi va o‘tkir zaharliligi bo‘yicha tasniflaganda, kimyoviy birikmalarning nisbatan zararsiz VI sinfiga mansubligi aniqlandi. Hisoblangan natijaga ko‘ra K<sub>k</sub>>1 bo‘ldi, bundan ko‘rinib turibdiki “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarini kumulyativ xossaga ega emas.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining og‘ir metallar, bakteriologik, parazitologik va radiologik xususiyatlarini aniqlash natijalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi xuzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi sanitariya - epidemiologiya nazorat bo‘limi tomonidan “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining og‘ir metallarning mavjud emasligi, bakteriologik, parazitologik va radiologik xususiyatlari o‘rganildi.

10-jadval.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining bakteriologik tekshiruv natijalari

N/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Xavfsizlik talablari	Ruxsat etilgan darajasi (ko‘p emas)	Haqiqatan taqdim etilgan ma’lumot	
				“As-Nafas”	“As-Immun”
1	κΜΑΦΑΗΜ KOE/g	GOST 10444.15-94	1 gr ga ruxsat berilmaydi	Mavjud emas	Mavjud emas
2	БГКП (koliformlar)	GOST 31747-2012	1 gr ga ruxsat berilmaydi	Mavjud emas	Mavjud emas
3	patogen, shu jumladan salmonellalar	GOST 31659-2012	25 gr ga ruxsat berilmaydi	Mavjud emas	Mavjud emas
4	xamirturush va mog‘or zamburug‘lari	GOST 10444.2-2013	10 gr ga ruxsat berilmaydi	Mavjud emas	Mavjud emas

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining og‘ir metallar xususiyatlari xarorat 19°C +/-2 va havoning nisbiy namligi 51% +/-2 sharoitlarda sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar quyidagi 11-jadvalda keltirilgan.

11-jadval.

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi og‘ir metallar miqdori

N/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Xavfsizlik talablari	Ruxsat etilgan darajasi (ko‘p emas)	Haqiqatan taqdim etilgan ma’lumot	
				“As-Nafas”	“As-Immun”
1	Pb mg/kg, yo‘q	MU 8m/254-2011	0,4	Mavjud emas	Mavjud emas
2	As mg/kg, yo‘q	MU 8m/254-2011	0,2	Mavjud emas	Mavjud emas
3	Cd mg/kg, yo‘q	MU 8m/254-2011	0,03	Mavjud emas	Mavjud emas
4	Hg mg/kg, yo‘q	MU 8m/254-2011	0,02	Mavjud emas	Mavjud emas

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmalarining parazitologik xususiyatlari xarorat 21,5+/-2°C va xavoning nisbiy namligi 37,4%+/-2 sharoitlarda sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar quyidagi 12-jadvalda keltirilgan.

12-jadval.

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmalarining parazitologik tekshiruv natijalari

<b>N/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar nomi</b>	<b>Xavfsizlik talablari</b>	<b>Ruxsat etilgan darajasi (ko‘p emas)</b>	<b>Haqiqatan taqdim etilgan ma’lumot</b>
1	Gelmin tuxumlari; patogen ichak protozoalarining kistalari	MU N/012-3/0134	Ruxsat berilmagan	Mavjud emas

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasining radiologik xususiyatlari xarorat 20°C va xavoning nisbiy namligi 49% sharoitlarda sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

13-jadval.

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasining radiologik tekshiruv natijalari

<b>N/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar nomi</b>	<b>Xavfsizlik talablari</b>	<b>Ruxsat etilgan darajasi (ko‘p emas)</b>	<b>Haqiqatan taqdim etilgan ma’lumot</b>
	Radionuklidlar:			As-nafas
1	Seziy(Cs)-137 Bq/kg,yo‘q	O‘z O‘U 0547:2011	80	Mavjud emas
2	Stronsiy (Sr)-90 Bq/kg,yo‘q	(MVI.MN 1181-2011)	70	Mavjud emas

“As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasining radiologik xususiyatlari xarorat 20 °C va xavoning nisbiy namligi 49% sharoitlarda sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

14-jadval

“As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasining radiologik tekshiruv natijalari

<b>N/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar nomi</b>	<b>Xavfsizlik talablari</b>	<b>Ruxsat etilgan darajasi (ko‘p emas)</b>	<b>Haqiqatan taqdim etilgan ma’lumot</b>
1	Gamma-nurlanish, µSv/h	AMI.MN 0030-2022	80	Mavjud emas

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining og‘ir metallar, bakteriologik, parazitologik va radiologik ko‘rsatkichlari tegishli GOST talablariga to‘la mos ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar asosida zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatida immunitet tizimini yaxshilashda va turli a‘zolarining yallig‘lanish kasalliklarini davolashda qo‘llash mumkin degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning **“Yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari tayyorlash va ularning xususiyatlarini o‘rganish (Eksperimental qism)”** deb nomlangan uchinchi bobida karam, loviya va mosh o‘simliklari asosida yaratilgan “As-nafas” va “As-Immun” yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibini, antioksidantlik va antiradikallik faolligini aniqlash usullarining batafsil metodikalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalar va sintetik preparatlarni yallig‘lanish kasalliklarida qo‘llash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida yallig‘lanish kasalliklarini davolashda zamonaviy sintetik preparatlar va tabiiy “As-nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining klinik sinov natijalari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va Jamoat salomatligi qo‘mitasining Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan N/26-11b-843 sonli buyrug‘iga asosan GOST 28499-2014 asosida Sirop “As – nafas” maxsulotlarini ishlab chiqarish uchun tayyorlangan TY 303271760-06:2024 sonli, GOST 31712-2012 asosida Djem “As-Immun” maxsulotlarini ishlab chiqarish uchun tayyorlangan TY 303271760-07:2024 sonli texnologik yo‘riqnomalar ishlab chiqildi.

“AS-NAFAS” va “AS-IMMUN” oziq-ovqat qo‘shilmalarini “Oltin vodiy tabiati” MCHJ da yalpi mahsulot sifatida ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi prezidenti administratsiyasi xuzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi sanitariya-epidemiologiya nazorat bo‘limi xulosasi olingan (O‘zbekiston Respublikasi prezidenti administratsiyasi xuzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi sanitariya-epidemiologiya nazorat bo‘limi 2024-yil, 5-noyabrdagi 018319-son xulosasi). Natijada mazkur oziq-ovqat qo‘shilmalarini talab darajasida sertifikatsiyalash imkonini bergan.

*TIF TN bo‘yicha sinflash.* Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasining 1212 30 - “dorivor o‘simliklardan yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari” subpozitsiyasi bo‘yicha sinflab, karam bargidan olingan sharbati asosida tayyorlangan “As-nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun 1212 30 150 4 hamda loviya va moshdan tayyorlangan “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun 1212 30 150 5 tovar kod raqamlarini bojxona amaliyotiga tavsiya etdik.

Ishlab chiqilgan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun taklif etilgan tovar kodlari O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024-yil, 18-oktyabrdagi №17/05-24-0003-son ma’lumotnomasi) tomonidan qabul qilindi va tegishli ma’lumotnoma berildi. Natijada, shu kabi oziq-ovqat qo‘shilmalarini eksport va import qilishda ularda undiriladigan boj to‘lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

## XULOSALAR

“Karam, loviya, mosh asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularni sinflash” mavzusidagi dissertatsiya ishi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Karam, loviya, mosh o‘simliklari asosida yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan “As-Nafas” va “As-Immun” nomli tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqildi.

2. Spektrofotometrik usul yordamida “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining antioksidantlik faolliklari gliklazid va kversetinga nisbatan aniqlanganda mos ravishda 83,34 va 73,07%, antiradikal faolliklari esa DPPH ga nisbatan aniqlanganda mos ravishda 52 va 51% ekanligi isbotlandi.

3. Karam, loviya, mosh o‘simliklari asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmalarining tarkibidagi vitaminlar, makro- va mikroelementlar, fenol birikmalar miqdori aniqlash natijasida, yallig‘lanish kasalliklarini davolash va oldini olishda yordam beruvchi biologik faol moddalar mavjudligini ko‘rsatdi.

4. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining bakteriologik, radiologik, parazitologik xususiyatlari va og‘ir metallar miqdori tegishli davlat standartlari talablariga to‘la javob berishi aniqlandi.

5. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishga qarshi faolliklari, o‘tkir zaharlash va kumulyativlik, o‘rtacha o‘lim dozasi ( $LD_{50}$ ), surunkali zaharlash xususiyatlari oq zotsiz sichqonlarda olib borildi. Aniqlash testlari natijalariga ko‘ra o‘rtacha o‘lim dozasi  $LD_{50} > 10000$  mg/kg ekanligini ko‘rsatdi va o‘tkir zaharlashi bo‘yicha tasniflaganda, har ikkala oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy birikmalarning nisbatan zararsiz VI sinfiga mansubligi aniqlandi.

6. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish uchun Sanitariya - epidemiologik xulosa va texnologik yo‘riqnomasi olindi, hamda “Oltin vodiy tabiati” MCHJ da ishlab chiqarilib, amaliyotga joriy etildi.

7. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining xavfsizligi bo‘yicha klinik oldi sinovlari o‘tkazildi va ushbu tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalaridan foydalanish, sintetik dorilarga nisbatan samarali va zararsiz ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, oziq-ovqat qo‘shilmalari yordamida yallig‘lanish kasalligiga chalingan har bir bemorni davolashda 339 ming 822 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

8. Tadqiqot natijalaridan olingan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibi aniqlandi, ularga TIF TN bo‘yicha yangi: karam bargi asosida olingan “As-Nafas” sharbati uchun 1212 30 150 4 hamda loviya va mosh asosida tayyorlangan “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun 1212 30 150 5 tovar kodlari ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi amaliyotida joriy etildi. (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024-yil, 18-oktyabrdagi № 17/05-24-0003-son ma’lumotnomasi)

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
№ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**КАРИМОВ ИСЛОМЖОН ЖУМАБОЙ УГЛИ**

**ПОЛУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ НОВЫХ ПИЩЕВЫХ  
ДОБАВОК НА ОСНОВЕ КАПУСТЫ, ФАСОЛИ И МАША**

**02.00.09 – Химия товаров  
14.00.41– Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Андижан - 2025**

Тема докторской диссертации зарегистрирована под номером В2024.4.PhD/K884 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Андijanском машиностроительном институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета ( [www.adu.uz](http://www.adu.uz) ) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ( [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) ).

**Научные руководители:** Аскарлов Иброхим Рахмонович  
доктор химических наук, профессор  
Турдалиев Умид Мухтаралиевич  
доктор технических наук, старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты :** Ахмадалиев Махаммаджон Ахмадалиевич  
доктор технических наук, доцент  
Убайдуллаев Комильжон Турсунович  
доктор философии по химическим наукам (PhD)

**Ведущая организация:** Кокандский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета за номером DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 в Андijanском государственном университете «26» 03, 2025 года. (Адрес: 170100, Андijanское шоссе, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223'84 33)

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Андijanского государственного университета (зарегистрирован под номером). (Адрес: 170100, Андijanский район, ул. Университета, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, электронная почта: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).

Автореферат диссертации роздан «10» 03 2025 года.  
(Отчет реестра под номером 51 от «10» 03 2025 года.)



**Ш.М.Киргизов**  
Пресидатель научного совета  
по присуждению научных степеней  
д.х.н., профессор

**М.М.Муминжонов**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению научных степеней, д.х.н., доцент

**М.М.Хожиматов**  
Пресидатель научного семинара научного  
совета по присуждению научных степеней  
д.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Определение химического состава лекарственных растений, разработка на их основе натуральных, нетоксичных, полезных для организма человека пищевых добавок, и определение их полезных свойств является одной из актуальных проблем в мире. В связи с этим разработка натуральных, безвредных и экологически чистых пищевых добавок, содержащих различные биологически активные соединения, такие как витамины, флавоноиды, макро- и микроэлементы, предназначенных в качестве вспомогательных средств к синтетическим препаратам на основе частей лекарственных растений разных периодов вегетации, имеют большое значение в лечении и профилактике различных воспалительных заболеваний.

В мировом масштабе ведется ряд исследований в области создания пищевых добавок, приготовленных из натуральных биологически активных соединений, извлеченных из лекарственных трав, обладающие свойствами профилактики и лечения воспалительных заболеваний. В данной сфере особое внимание уделяется разработке на основе лекарственных растений, способствующих лечению или предупреждающих воспалительные заболевания биологически активных добавок к пище, заменителей некоторых синтетических средств. По этой причине значительное практическое значение имеет создание пищевых добавок, обладающих свойствами лечения и профилактики воспалительных заболеваний на основе капусты, фасоли и маша, содержащие натуральные компоненты, положительно влияющие при воспалениях, определение их химического состава, а также разработка для них новых товарных кодов по ТН ВЭД.

В нашей республике достигнуты определенные результаты в разработке и внедрении натуральных пищевых добавок, обладающих свойствами лечения и профилактики ряда заболеваний, одновременно повышающих иммунитет организма человека. В стратегии развития нового Узбекистана<sup>1</sup> определены задачи, которые важно реализовать в рамках «Реализации Программы развития пищевой промышленности». Исходя из этих задач, создание пищевых добавок на основе растений капусты, фасоли и маша, содержащие соединения, предотвращающие воспалительные заболевания, повышающие иммунитет организма, безвредных и биологически активных добавок на натуральной основе, а также изучение их химического состава, структуры, свойств, а также разработка и внедрение товарных кодов по правилам гармонизированной системы имеют важное научное и практическое значение.

Данное диссертационное исследование имеет определенное значение

---

<sup>1</sup>Указ УП-60 от 28 января 2022 года Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

в реализации поставленных задач в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, в Указе №УП-4668 «О дополнительных мерах по развитию народной медицины в Республике Узбекистан» от 10 апреля 2020 г., а также в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-251 «О мерах по организации культурного выращивания, переработки и широкого использования лекарственных растений в лечении» от 20 мая 2022 года и № ПП-3968 «О мерах по упорядочению сферы народной медицины в Республике Узбекистан» от 12 октября 2018 г.

